

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

SHIRINOVA MUQADDAS SHAVKAT QIZI

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA "LANDSHAFTSHUNOSLIK
ASOSLARI" FANINI O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Shirinova Muqaddas Shavkat qizi

Oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o‘qitish
metodikasini takomillashtirish 3

Ширинова Мукаддас Шавкат кизи

Совершенствование методики преподавания “Основы Ландшафтоведения” в
высших учебных заведениях..... 19

Shirinova Muqaddas Shavkat qizi

Improving the teaching methodology of “Fundamentals of Landscape Studies”
in higher educational institutions 37

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publication 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

SHIRINOVA MUQADDAS SHAVKAT QIZI

**OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “LANDSHAFTSHUNOSLIK
ASOSLARI” FANINI O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7582 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti da bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Musayev Jahongir Payazovich**
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Komilova Nilufar Qarshiboyevna**
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov Furqat Turaqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel.:(99866) 239-16-36; faks: (99866) 239-11-40, e-mail: ik_geografiya2019@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.:(+99866)233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 18-oktabrda tarqatildi.
(2025-yil 17-oktabrda 1-raqamli reestr bayonnomasi)

S.B. Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik ilmiy kengash raisi,
g.f.d., professor

B.A. Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
Geografiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent.

N.Q. Komilova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, g.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida bugungi kunda ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda o'quv materiallarini innovatsion ta'lim metodlari asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2030-yilgacha belgilangan tizimli xalqaro ta'lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ta'limi rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlarda soha mutaxassislari tayyorlash, metodik faoliyatini rivojlantirish, talabalarda geografiya fan sohalaridan innovatsion ta'lim metodlari, axborot texnologiyalari asosida o'qitishni takomillashtirishning zamonaviy uslublari va vositalaridan kompleks foydalanishga ahamiyat qaratilmoqda.

Dunyoda tabiiy fanlar, jumladan geografiya fani sohalarini o'qitish jarayonida talabalarining tabiiy-ilmiy bilimlarini va metodik faoliyatini rivojlantirish "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish sifatini takomillashtirish, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, oliy ta'limni zamonaviy raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitlariga moslashtirish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Shu jihatdan, zamonaviy ta'lim tendensiyalariga muvofiq interaktiv yondashuv asosida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining "Landshaftshunoslik asoslari" fani bo'yicha kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtirish, ilmiy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini orttirish muammosi alohida dolzarblik kasb etdi.

Respublikamizning III Rennessans davrida geografiya fani o'qituvchilarining "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish sifatini rivojlantirish, "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetent mutaxassis va kasbiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Yurtboshimizning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida ham sohani takomillashtirish va tizimli islohotlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan. Bu borada zamonaviy ta'lim voqeliklar bu ma'noda bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy-metodik faoliyatga professional tayyorlikni shakllantirish jarayonini maksimal darajada intensivlashtirishga imkon beruvchi zamonaviy raqamli ta'limning butun resursidan foydalanishga yangi imkoniyatlar ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"¹gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning muammolari va ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha ma'lumotlar B.Abdullayeva, R.Djurayev, R.Isyanov, N.Muslimov, M.H.Mahmudov; geografiya o'qitish metodikasi, xususan landshaftshunoslik fanining tarixi va tadqiq etish bo'yicha respublikamizda O.Mo'minov, P.G'ulomov, P.Musayev, R.Qurboniyozov, X.Vaxobov, X.Vaxobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultonova hamda A.Abdulqosimov, Yu.Sultonov, R.U.Raximbekova, Sh.S.Zokirov, X.R.Toshov, A.N.Xodjimatov, S.B.Abbasov, M.K.Ergashova kabi olimlar; innovatsion ta'limni tashkil etishning konseptual asoslari, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari bo'yicha A.Abduqodirov, U.Begimqulovlar hamda interfaol ta'limni tashkil etishning amaliy-texnologik jihatlari N.N.Azixodjayeva, R.Djurayev, J.Yo'ldoshevlar tomonidan tadqiq qilingan.

"Landshaftshunoslik asoslari" fanining nazariy-metodologik masalalari MDH mamlakatlarida N.A.Solnsev, N.A.Gvozdeskiy, V.A.Nikolayev, V.B.Sochava, F.N.Milkov, B.B.Polinov, D.L.Armand, Yu.K.Yefremov, V.I.Prokaev, A.G.Isachenko va O'zbekistonlik V.M.Chetirkin, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Abdulqosimov, Sh.S.Zokirov, S.B.Abbasov, A.N.Nig'matov, Yu.Sultonov, I.Q.Nazarov, K.M.Boymirzaev, A.N.Xodjimatov, X.R.Toshov singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida uchraydi.

Biroq, Respublikamizda o'qituvchilarining "Landshaftshunoslik asoslari" fani o'qitish sifatini rivojlantirish muammosi bilan bog'liq keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining landshaftshunoslik asosi fani o'qitish sifatini rivojlantirishga bag'ishlangan alohida ishlar o'rganilmagan. Shu sababli ham, Oliy ta'lim muassasalarining geografiya ta'lim sohasida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish sifatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — T., 2017. 6-son.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'quv dasturlari mazmunini optimallashtirish va o'qitish metodikasini takomillashtirish"(2021-2023 y.y.) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini tahlil etish;

oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini modellashtirish;

oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik takliflarni ishlab chiqish va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida geografiya darslarida talabalarni oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Jizzax davlat pedagogika universitetlarining 425 nafar talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakllari, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga doir pedagogik va metodik manbalarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, so'rovnoma, anketalar olish, test, tajriba-sinov natijalaridan matematik-statistik qayta ishlash kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Landshaftshunoslik asoslari" fanini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasining didaktik imkoniyatlari ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faolligini ifodalovchi partisipativ yondashuv asosida o'qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini oshirish hamda individuallashtirish faoliyatlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishning mustaqil ta'lim olishga yo'naltiruvchi tashkiliy-kommunikatsion omillarini elektron ta'lim muhitida adaptiv va reproduktiv o'qitishga integratsiyalovchi algoritmi takomillashtirilgan;

"Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini rivojlantirish modeli ta'lim jarayonini tashkil etishga doir refleksiv hamda sinergetik yondashuvlarni pedagogik transformatsiyalashishiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

“Landshaftshunoslik asoslari” fanini oliy ta’lim muassasalarida o’qitish metodikasi farazlarni dalillash, reflektiv kompetensiyani baholash, individual hamda mustaqil ta’lim sub’ektlarining manfaatlariga adaptiv sinxronlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

geografiya fani o’qituvchisining geografiya darslarini tashkil etishda metodik kompetentligi tuzilmasi takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirishda modulda o’qitish texnologiyasi bosqichlari aniqlashtirilgan;

“Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalari (ta’lim jarayonida qo’llaniladigan interfaol metodlarda talabalarning fikrlash qobiliyatini oshirish hamda faoliyatli-shaxsga yo’naltirilgan ta’lim mazmunini joriy etish tamoyillari) ishlab chiqilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirish bo’yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishda qo’llanilgan zamonaviy yondashuvlar, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, nazariy ma’lumotlarni tajriba natijalariga mos kelishi ularning OAK tomonidan tavsiya etilgan yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, berilgan tahlil va tajribasinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlari asosida bajarilganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geografiyadan darslarni tashkil etish va o’tkazishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgani, geografik ta’limi, jumladan, geografiya fani o’qituvchilari tomonidan olib boriladigan darslarni o’tkazishga qo’yiladigan pedagogik-psixologik, didaktik, metodik hamda ergonomik talablar asosida auditoriyadan tashqari mashg’ulotlarda talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni ochib berilgani, mazkur fandagi darslarni o’tkazishning tashkiliy-funksional modeli yordamida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati geografiya fanidan oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirish darslarni o’tkazishning didaktik tizimi ishlab chiqilgani, maxsus tajriba maydonlarida tashkil etish va o’tkazish metodikasining yaratilgani, darslarni axborot texnologiyalari vositasida tashkil etishning metodik shart-sharoitlari takomillashtirilgani, oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirishda modulli o’qitish texnologiyasi bosqichlari hamda metodik ta’minotidan foydalanish imkoniyati ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirish bo’yicha olingan natijalar asosida:

“Landshaftshunoslik asoslari” fanini oliy ta’lim muassasalarida o’qitish metodikasi didaktik imkoniyatlar, pedagogik nazariya va amaliyot uyg’unligini ta’minlashning didaktik imkoniyatlarini partisipativ hamda kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o’qitishning vizual-tadqiqiy samaradorligini kengaytirish, individuallashtirish faoliyatlariga ustuvorlik berish “Umumiy yer bilimi” nomli o’quv qo’llanma mazmuniga singdirilgan, (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 30 maydagi 2023/164 U-20 raqamli ma’lumotnoma). Natijada bo’lajak geografiya o’qituvchilarini amaliy-loyihaviy faoliyati mazmuniga kirgan harakatlarni aniqlashga imkon kengaygan, kasbiy-uslubiy tayyorgarlik samaradorligini takomillashtirishga erishilgan;

oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirish jarayonida mustaqil ta’lim olishga ta’sir ko’rsatuvchi tashkiliy-kommunikatsion omillarini elektron ta’lim muhitida adaptiv va reproduktiv o’qitishga integratsiyalovchi algoritimli topshiriqlardan «Umumiy yer bilimi» nomli o’quv qo’llanmasida foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 30 maydagi 2023/164 U-20 raqamli ma’lumotnoma). Natijada ta’limni axborotlashtirish sharoitida uzluksiz ta’lim muassasalarida faol axborot almashish imkoniyati va interaktiv texnologiyalardan ijodiy foydalanish kompetensiyasiga ega geografik-mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

“Landshaftshunoslik asoslari” fanini oliy ta’lim muassasalarida o’qitish metodikasini rivojlantirish mezonlari kasbiy kompetentlik va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish hamda, oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini rivojlantirish modeli asosida ta’lim jarayonini tashkil etishga doir reflektiv hamda sinergetik yondashuvlarni pedagogik transformatsiyalashishiga ustuvorlik berishga oid tavsiyalardan «Umumiy yer bilimi» nomli o’quv qo’llanmasida foydalanilgan. Natijada, geografiya ta’lim yo’nalishi talabalarining o’zlashtirish darajasini baholashning informatsion va analitik mezonlari, fanga oid indikatorli tuzilma hamda interfaol ta’lim metodlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, muammoning o’rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi,

vazifalari, ob'ekti, predmeti, metodlari aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarida ‘Landshaftshunoslik asoslari’ fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Landshaftshunoslik asoslari” fani o'qitish nazariyasi va amaliyotdagi muammolar, “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik tamoyillari, shakl va vositalari hamda fanni interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida o'qitish nechog'liq maqsadga muvofiqligi o'rganilgan.

Bu masala bo'yicha jahonda va respublikamizda D.A.Armand, L.S.Berg, A.A.Grigorev, I.P.Gerasimov, N.A.Gvozdeskiy, I.M.Zabelin, A.G.Isachenko, S.V.Kalesnik, F.N.Milkov, V.A.Nikolayev, V.S.Preobrajenskiy, N.A.Solntsev, V.B.Sochava, X.Vaxobov, N.R.Alimkulov bir qancha olimlar ishlagan.

Tuproqshunos va geograf olim, geografik zonallik qonuniyatini birinchi bor V.V.Dokuchayev tomonidan o'zining «Русский чернозем» (Rus qora tuprog'i) nomli asarida ilmiy asoslab berib yangi tabiiy jism, ya'ni tuproqni kashf qilgan.

V.V.Dokuchayev ta'kidlashicha, tabiatda bir jism, kuch yoki hodisa ikkinchisi bilan doimo murakkab aloqada bo'ladi va tabiiy komponentlar hamda tabiiy hodisalar alohida-alohida holda emas, balki bir butun majmua sifatida o'rganilishi kerakdir. Quruqlik tabiat zonalari, iqlim, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy omillar o'zaro ta'sir hamda aloqada bo'lgan murakkab tabiiy kompleksdir. Bu esa hozirgi zamon tabiiy geografiyaning fundamental tushunchalaridan biri bo'lgan tabiiy geografik komplekslar haqidagi g'oyaning yuzaga kelishi edi .

L.S.Berg, V.V.Dokuchayevni landshaft haqidagi ta'limotning yaratuvchisi va hozirgi zamon geografiyasining asoschisi deb atagan bo'lsa, landshaftshunos N.A.Solntsev, V.V.Dokuchayev landshaftshunoslikning tub asoslarini yaratdi deb ta'kidlaydi.

B.B.Polinovning ta'kidlashicha, landshaft – yer yuzasining shunday qismiga aytiladiki, uning hududida iqlim, tog' jinslari, relyef, suv havzalari, o'simlik, tuproq va hayvonot dunyosining ma'lum tarkibi hamda xususiyatlari, ular orasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarning bir butunligiga sabab bo'ladigan darajada saqlanadi.

I.V.Larin ham o'zining landshaftlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy maqolalarini e'lon qildi. Mazkur tadqiqot ishlarda landshaft xaritalari va ularga bog'liq holda landshaftlarning batafsil tahlili ham berilgan. Shuningdek, tabiiy geografik komplekslarning eng kichigi, boshqa bo'linmaydigan mikrolandschaft haqidagi g'oya ham ilgari surilgan.

Tadqiqotimiz davomida “Landshaftshunoslik asoslari” fani tabiiy geografiya bo'limiga tegishli bo'lib, o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanish asosan geografiya fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, zamonaviy usullardan foydalanish, xalqaro tadqiqotlar asosida ushbu fanni olib

borish, berilayotgan topshiriqlarni yaxshi anglash va yechimini chuqur anglab yetish lozim.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning mazmunini boyitish, ta'lim muassasalarining faoliyatini samarali va hayotiy maqsadlarni ko'zlagan holda yo'lga qo'yish, ularni eng zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalari bilan jihozlash, hamda ta'lim jarayonini malakali pedagoglar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan, xususan axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan to'laqonli foydalanish orqali talabalarning tabiiy fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining yanada rivojlanishiga, ularning atrof-olam bo'yicha dunyoqarashlarining kengayishiga erishish mumkinligi ochib berilgan.

Shuningdek, mavzuni o'rganish va tadqiqot ishlarini olib borish jarayonidagi natijalarga asoslanib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv-uslubiy faoliyatidagi bilimlarni o'zlashtirish, interfaol ta'lim texnologiyalaridan hamda zamonaviy elektron ta'lim resurslaridan foydalanishdagi mavjud muammolar aniqlandi, umumlashtirildi va ularni bartaraf etish hamda talabalarning o'quv-uslubiy faoliyati bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlarga doir bilimni oshirish masalasiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalaridagi "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim yo'nalishining mutaxassislik fanlari o'quv rejasiga kiritilgan "Landshaftshunoslik asoslari" fanining mazmuni tahlil qilindi, shuningdek, ushbu fanni o'qitishda talabalarning o'quv majburiyatlari va ularning hajmi, fanning nazariy va amaliy metodologik muammolari va tadqiq qilinishi, zamonaviy geografiya ta'limining maqsadi va asosiy vazifalari bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Tadqiqotimiz davomida "Landshaftshunoslik asoslari" fani tabiiy geografiya bo'limiga tegishli bo'lib, o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanish asosan geografiya fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, zamonaviy usullardan foydalanish, xalqaro tadqiqotlar asosida ushbu fanni olib borish, berilayotgan topshiriqlarni yaxshi anglash va yechimini chuqur anglab yetish lozim.

Ushbu bobda "Landshaftshunoslik asoslari" bo'yicha jahonda va respublikamizda olib borilgan taqqiqotlar keng ochib berilgan. "Landshaftshunoslik asoslari" fanidan bajaradigan amaliy mashg'ulotlarning turlari, ularga qo'yiladigan metodik talablar, amaliy mashg'ulotlarning talabalar bilimni oshirishdagi o'rni va ahamiyati ochib berildi.

Dissertatsiyaning **"Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish amaliy texnologik tizimi"** deb nomlangan ikkinchi bobida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishni takomillashtirishning metodik ta'minoti, oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish"ning tarmoqli modeli va uning komponentlari, fanni o'qitishda "Landshaftshunoslik

asoslari” interfaol metodlardan foydalanish metodikasi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish sifati-samaradorligini yanada takomillashtirish, bu fanning o’quv-metodik va axborot ta’minotini mustahkamlashdan biri hisoblanadi. Demak, ilmiy pedagogik shart-sharoit doirasida, elektron axborot ta’lim resurslarining didaktik ahamiyati, o’zlashtirish samaradorligiga ta’sir etadigan samarasini inobatga olish joizdir. Ta’lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni qo’llashga qiziqish kun sayin oshib bormoqda. Bu bilan biz talabalarning bilim olishga bo’lgan xoxish va qiziqishlarining oshishiga erishamiz.

Tadqiqotimizda Bugun jamiyat oliy ta’lim muassasalari oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo’ydi. Ana shu vazifalarni hal etishda oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini muammoli ta’lim texnologiyasi etakchi o’rinni egallaydi. Muammoli ta’lim – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko’nikma va malakalarni shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim.

“Landshaftshunoslik asoslari” fanidan zamonaviy muammoli dars strukturasi uning tipi va turidan qat’iy nazar har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masalasi keltirib o’tilgan(1-rasm):



1-rasm. “Landshaftshunoslik asoslari” fanidan muammoli ta’lim strukturasi.

Oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitishda ta’lim jarayoniga integrativ yondashuv asosida model o’z ichiga maqsadga qaratilgan, mazmunga oid, operatsion va baholash natijaga oid bloklarini oladi. Pedagogik jarayondagi sodir bo’ladigan tizimning asosiy tarkibiy qismlari sifatida tadqiqotda o’zaro faoliyatdagi maqsad, vazifalar, metodlar, vositalar, shart sharoitlar, shakllar, shuningdek, bunda erishish mumkin bo’ladigan natijalarni ajratib ko’rsatadi. Oliy ta’lim muassasalarida “Landshaftshunoslik asoslari” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish 2-rasmida o’z ifodasini topgan. (2-rasmga qarang).

Ijtimoiy buyurtma: Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish

Tadqiqotning maqsadi: oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Maqsadga qaratilgan blok

Maqsad	Vazifalar	Tamoyillar	Yondashuvlar
oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish	"Landshaftshunoslik asoslari" fanini takomillashtirish, o'qitish samaradorligini aniqlash, muammoli o'qitish jarayonini aniqlash, o'qitish samaradorligini takomillashtirish	Tarbiya va rivojlantiruvchi ta'lim, individuallashtirish, tabaqalashtirish, interaktivlik	Tizimli, interfaol metodga asoslangan, kompetentli, faoliyatli yondashuv

Mazmunga oid blok

1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	4-bosqich
"Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini	"Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish	"Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish	ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va samaradorligini aniqlash

Texnologik-faoliyatli blok

O'qitish dasturlari	Shakllari	Metodlari	Vositlari	
Muammoli, dasturli, axborotlashirilgan dasturlar	Tushuntirishga yo'naltirilgan darslar, seminar mashg'ulotlari, muammoli darslar	Fototopishmoq, davra subhati, dibat, raqamlar piramidasi ko'rgazmali, amaliy, muammoli izlanish, mustaqil ishlar, reproduktiv evristik, induktiv va deduktiv, nazorat va o'z-o'zini nazorat	Matnli, tasvirli, audio-vizual, yordamchi, modeli vositalar	
Yo'nalishlari				
"Landshaftshunoslik asoslari" fanini hozirgi holatini tahlil qilish	"Landshaftshunoslik asoslari" fanini faoliyatini amalga oshirishning asosiy yo'nalishi	respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tahlil qilish	"Landshaftshunoslik asoslari" fani bo'yicha egallashni lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish	
"Landshaftshunoslik asoslari" fani bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini, tahlil qilish				

Natijadorlikni baholash bloki

yuqori	o'rta	past
Metodik kompetensiyani baholash	Refleksiv kompetensiyani baholash	Fanga oid kompetensiyani baholash

Natija: Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirilgan.

2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga mos ravishda ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan foydalanish talab etiladi. Dastlabki so'rov bosqichida Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini bo'yicha ko'nikmalari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni to'plash, baholash va tuzatish bosqichida savodga o'rgatishga aniqlik kiritish, mustaqil baholash bosqichida davom ettiriladigan qo'shimcha mashg'ulotlarni tanlash hamda yakuniy saralash bosqichida esa kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish rejasini ishlab chiqish ishlari olib boriladi.

Modelning tarkibi: ijtimoiy ehtiyoj, maqsad, ta'lim mazmuni va jarayoni, baholash mezonlari, tayyorgarlik darajalari, ta'lim natijasi kabi komponentlarini o'z ichiga oladi.

Modelning ijtimoiy ehtiyoj komponenti: Talabalarning "Landshaftshunoslik asoslari" fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish;

Modelning maqsadi: Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish hisoblanadi;

Modelning mazmuni malaka talablari, o'quv rejalar va dasturlar, elektron darslik va o'quv qo'llanmalar, me'yoriy hujjatlar va boshqalar.

Baholash mezonlari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv jarayoni sifatini xolisona va sifatli nazorat qilish tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan turli usul va metodlar asosida amalga oshirildi. Mazkur masalaning ijobiy hal qilinishi talabalarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari o'rnatilgan talablarga mos darajada bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Talabalarning "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'zlashtirishiga yordam beruvchi mazkur elektron ta'lim resurslaridagi har bir mavzuga oid videolavhalar, fotosuratlar, taqdimotlar, talabalarning mavzularga oid bilimni aniqlovchi testlar, ma'ruza qismida qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar, qiziqarli geografik ma'lumotlar talabalarning kreativlik qobiliyatini oshirish vositalari bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bobda elektron ta'lim resurslarining ta'lim jarayonidagi roli keng ochib berildi. Muallif tomonidan "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan ("Fototopishmoq", "Venn diagrammasi", "Davra suhbat", "Dibat" texnologiyasi, "Raqamlar piramidasi" metodi foydalanishning samaradorligi aniqlandi va ilmiylik, sistemalilik, fundamentallik, ta'limli va izchil yondashuv, ko'rgazmalilik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi va boshqa tamoyillar asosida o'qitish lozimligi ta'kidlandi va fan doirasida bir nechta interfaol dars mashg'ulotlari YouTube (<https://www.youtube.com/watch?v=Xwesf0pko5o>) ijtimoiy tarmog'iga joylashtirildi va fandan mustaqil ishlarni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, o'quv faoliyatlarida talabalarning bilim va ko'nikmalarini olishda, yangi materiallarni o'rganishda va mustahkamlashga oid tavsiyalar ishlab chiqildi. Fanga oid amaliy topshiriqlar namunalari keltirildi va metodikasi ishlab chiqildi, fanning mustaqil ta'limni bajarish metodikasi takomillashtirildi.

Dissertatsiyaning "Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularni o'tkazish" deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda pedagogik kuzatuv, anketa, suhbat, pedagogik

tajriba, interfaol metodlar, matematik-statistik metodlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Pedagogik tajriba-sinovni o'tkazishda asosan quyidagilarni sinab ko'rish nazarda tutildi:

Innovatsion texnologiyalar asosida "**Landshaftshunoslik asoslari**" o'quv faniga doir o'qitiladigan didaktik, tarqatma va dars ishlanmalariga oid materiallar mazmunining tegishli oliy ta'lim muassasalaridagi ahamiyati;

tanlangan ta'lim oliy ta'lim muassasalarida "**Landshaftshunoslik asoslari**" o'quv fani materiallarini o'rganishda talabalar qiziqishini orttirish ilmiy-metodik jihatdan o'rirliligi;

Qo'yilgan vazifalarga mos ravishda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari ikki asosiy qismdan tashkil topdi: ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichlari. Tajriba-sinov ishlarining mazkur faoliyat yo'nalishlari asosiy maqsadi oliy talim muassasalari talabalarining kasb ta'limi tizimining zamonaviy boshlang'ich ta'lim talablariga mosligi va maqsadga muvofiqligi darajasini oshirishdan iborat. Bunda empirik ma'lumotlarni yig'ishning turli-tuman metodlari majmuidan foydalanildi: oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni kuzatish, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, talabalar bilan individual suhbatlar; talabalar va o'qituvchilar anketa-so'rovnomalari; pedagogik hujjatlar tahlili.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish tajriba-sinov dasturi asosida ma'ruza va seminar mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'limga tatbiq qilindi.


1-jadval

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalar soni

№	Guruhlar	OTM qatnashuvchilar soni			
		Toshkent davlat pedagogika universiteti	Navoiy davlat pedagogika instituti	Jizzax pedagogika instituti	Umumiy
1.	Tajriba guruhi	71	72	70	213
2.	Nazorat guruhi	69	71	72	212
Jami		140	143	142	425

Ushbu 2 bosqichda o'tkazilgan tajriba-tajriba ishlari bo'yicha olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish va statistik tahlilini o'tkazish maqsadida ular matematik-statistik usullar yordamida qayta tahlil qilindi³. Statistik tahlilni amalga oshirishda Pirsonning X^2 i usulidan foydalanilgan.

³ <http://library.ru/tem.asp=12834792>



3-rasm. Ta'lim muassalarida mezonlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari

Ushbu olingan natijalarning haqqoniyligini tekshirish maqsadida o'rtacha qiymatlarning ishonch oralig'ini hisoblaymiz. Buning uchun N_0 gipoteza sifatida tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha qiymatlar bo'yicha ishonch oraliqlari bir-biri bilan ustma-ust tushadi yoki kesishadi, N_1 gipoteza sifatida bu ishonch oraliqlari bir-biri bilan ustma-ust tushmaydi va olingan o'rtacha qiymatlar haqqoniy degan farazni ilgari suramiz.

Talabalarning bilim darajasi aniqlandi, buning uchun tanlangan tajriba va sinov guruhlarida "Landshaftshunoslik asoslari" fani bo'yicha og'zaki so'rov hamda 10 ta topshiriq va test asosida sinov o'tkazildi. Guruhlardagi talabalarning natijalariga ko'ra, guruhlarining o'zaro bilim darajasi yaqin ekanligini ko'rsatdi va har bir guruhlarda pedagogik tajriba - sinov o'tkazildi. Guruhlar nazorat guruh sifatida tanlandi va ularga an'anaviy usulda dars mashg'ulotlari kompyuterda tayyorlangan metodik ishlanmalar asosida tashkil qilindi.

Tanlanma guruhlarining o'rtacha qiymatlarini aniqlash va ular asosida, tanlamalarning dispersiyasi, dispersiyaning standart xatoligi, aniqlanish va variatsiya koeffitsiyentlari, ishonch intervallari va samaradorlik koeffitsientlari aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov ishidagi statistik tahlil masalasining mohiyati tahlil qilindi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish monitoringi uchun alohida kompetensiyalarning shakllanganligi darajasini aniqlashdan iborat bo'lgan mezonlar tizimidan foydalanildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida mezonlar va ularning ko'rsatkichlarini ajratish kompetensiyalar rivojlanganligi darajasini (yuqori, o'rta, past) va ular asosida oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun zarur hisoblanadi.

Pedagogik tajriba-sinov Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Jizzax davlat universitetining Tabiiy fanlar fakulteti "Geografiya o'qitish metodikasi" bakalaviat ta'lim yo'nalishining "Landshaftshunoslik asoslari" kursida olib borildi. Tajriba guruhlarida olib

borilgan tadqiqot ishlarining natijasi nazorat guruhlardagi natijadan 14% ga yuqori ekanligi to'liq isbotlandi. Demak, oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali ta'lim jarayoni samaradorligiga oid tajriba-sinov ishlari samarali ekan.

XULOSA

Mazkur ishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqot mavzusiga oid o'rganilgan adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish masalalari soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda hozirgi vaqtga qadar alohida muammo sifatida tadqiq etilmagan. Ushbu bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishining natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. "Landshaftshunoslik asoslari" o'quv fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar muhiti asosida usullarning takomillashtirilgan mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish, ularning afzallik tomonlarini ko'rsatish va bu usullarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

2. Innovatsion texnologiyalar va axborotlashgan muhit asosida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishning mazmuni, usullari, vositalari, shakllari va pedagogik shart-sharoitlari, tamoyillari o'rganildi. Oliy ta'lim pedagog xodimlarida innovatsion faoliyatni shakllantiruvchi, uning nazariy va amaliy asoslarini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi manbalar hamda shu yo'nalishda mavjud muammolarni hal qilishga oid uslubiy tavsiyalar va qo'llanmalarning etarli darajada emasligi aniqlandi.

3. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishning samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari mavjudligi asoslab berildi. Olib borilgan tadqiqot aynan shu muammoning yechimiga qaratilib, "Landshaftshunoslik asoslari"ni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning uslubiy ta'minot kompleksi yaratildi.

4. Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishda tanqidiy va kreativ tafakkurni rag'batlantirish, uslubiy tayyorgarlikni oshirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'qitishning interfaol usullariga oid nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, ko'nikma va malakalarni muntazam takomillashtirib borish va ularni amaliyotda qo'llash orqali talabalarning kelgusidagi kasbiy kompetentligi shakllantirildi.

5. Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishda fan mavzulari innovatsion pedagogik muhit asosida tizimlashtirilgan, u yangi didaktik imkoniyatlarni ochishga hamda mazkur o'quv fani mavzularini o'qitish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

6. Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanidan amaliy ishlari, namoyishli tajribalar, mustaqil ta'limni tabiiy va virtual shakllarda auditoriya sharoitida tashkil etish va o'tkazish, fanni o'qitishda innovatsion va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini integrasiyalash asosida talabalarning

motivasion, kreativ, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga erishish va vaqt sarfini optimallashtirish mumkinligi tadqiqot jarayonida o'z tasdig'ini topdi.

7. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijasiga ko'ra innovatsion texnologiya muhitida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishda erishilgan samaradorlik matematik statistik usullar yordamida isbotlandi. Shu asosda "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishda qo'llanadigan hamda ta'lim sifatini oshirishning pedagogik kafolati sifatida qarash mumkin bo'lgan pedagogik shart-sharoitni yuzaga keltirish imkoni yaratildi. Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishi yakuni uning samaradorligini tasdiqladi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitish metodikasi hamda talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarni takomillashtirishga oid quyidagi taklif va tavsiyalar taqdim etildi:

1. "Landshaftshunoslik asoslari" fanidan uslubiy ta'minotni takomillashtirish maqsadida uning mazmuniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositalarini keng joriy etish va ulardan mashg'ulotlarda unumli foydalanish;

2. "Landshaftshunoslik asoslari" fanini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish ko'lamini kengaytirish;

3. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchi va talabalarining "Landshaftshunoslik asoslari" fani bo'yicha uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan multimediali elektron axborot resurslarini yaratish va ulardan "Landshaftshunoslik asoslari" fani mashg'ulotlarida samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

4. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining "Landshaftshunoslik asoslari" fanidan darslarini tashkil etishga qo'yiladigan zamonaviy talablarni bilish darajasini oshirish, shuningdek, ularning ta'lim muassasalarida elektron ta'lim resurslaridan to'laqonli foydalanishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish.

5. Talabalarining mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan fanlarni dasturiy ta'lim vositalari orqali o'qitishda, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatiga tayyorlashning didaktik va metodik talablarni amalga oshirishning maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlarini qamrab olgan takomillashtirilgan model asosida o'qitishni ommallashtirish tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ, СОЗДАННЫЙ НА БАЗЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

**УЗБЕКСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ НИЗАМИ**

ШИРИНОВА МУКАДДАС ШАВКАТ КЫЗЫ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ
ПРЕДМЕТА “ОСНОВЫ ЛАНДШАФТОВЕДЕНИЯ” В ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (география)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером В2024.2.PhD/Ped7582 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Узбекский национальный педагогический университет имени Низами.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tdpu.uz), и на информационно-образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Мусаев Джахангир Паязович доктор географических наук (DSC), профессор
Официальные оппоненты:	Камилова Нилуфар Каршибаевна доктор географических наук (DSC), профессор Раджабов Фуркат Туракулович доктор педагогических наук (DSC), доцент
Ведущая организация:	Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 31 октября 2025 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете. (Адрес: 140104, г. Самарканд, ул. Бустонсарай, д. 93. Тел.: +99866 239-16-36; факс: +99866 239-11-40, e-mail: ik_geografiya2021@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрирован под номером _____). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, д. 15. Тел.:+99866 233-60-87.

Автореферат диссертации разослан 18 октября 2025 года.
(Протокол реестра № 1 от 17 октября 2025 года).

С.Б. Аббасов
Председатель Разового научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

Б.А. Мелиев
Ученый секретарь Разового научного совета
по присуждению ученых степеней,
PhD по географическим наукам, доцент.

Н.К. Комилова
Председатель научного семинара при
Разовом научном совете по присуждению
ученых степеней, д.г.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом масштабе сегодня особое внимание уделяется совершенствованию учебного материала на основе инновационных методов обучения в соответствии с тенденциями развития сферы образования. В концепции системного международного образования, установленной до 2030 года, в качестве актуальной задачи определено “предоставление доступа к качественному образованию на протяжении всей жизни”. В передовых зарубежных странах с развитым образованием акцент делается на подготовке специалистов отрасли, развитии методической деятельности, комплексном использовании инновационных методов обучения студентов географическим наукам, современных методов и средств совершенствования обучения на основе информационных технологий.

В мире осуществлены комплексные научные исследования в области развития естественнонаучных знаний и методической деятельности студентов в процессе обучения естественнонаучным дисциплинам, в том числе географии, повышения качества преподавания предмета “Основы ландшафтоведения”, моделирования, проектирования образовательного процесса, адаптации высшего образования к условиям трансформации современного цифрового образования. В этом отношении, проблема адаптации профессиональной подготовки будущих учителей географии на основе интерактивного подхода в соответствии с современными образовательными тенденциями, совершенствования научной и практической подготовки, увеличение возможностей эффективного использования современных технологий в профессиональной деятельности представляет особое актуальное значение.

